MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SHAXMAT O‘YINI ORQALI TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING DOLZARB MASALALARI

Xoliqov Umidjon Qo‘chqarovich
Guliston davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsentu v.b.
shax75.75 @ mail.ru
Kabulova Sanobar Eshnazarovna
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda bolalarni MTT va oilada shaxmat o‘ynashga o‘rgatish orqali har tamonlama rivojlantirish, ularning diqqat, idrok, tafakkur, xotirasi, aqliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlariini o‘stirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, oilada, shaxmat o‘yin, idroki, tafakkuri, xotirasi, mantiqiy, diqqat, qobilyat,harakter,sog‘lik,ruhiy, jismoniy tayyorgarlik va albatta

Abstract. The Article is devoted to the study of chess at preschool age in the family, logical thinking of a child engaged in chess, facilitates the development of all disciplines, increases intellectual potential, abilities, develops and develops their attention, perception, thinking, memory and logical thinking through the game of chess.

Key words: preschool education, family, chess game, cognition, thinking, memory, logic, attention, abilities, character, health, psyche, physical fitness and of course.

Mamlakatimiz va chet ellarda o‘tkazilgan pedagogik, psixologik va fiziologik tadqiqotlar, 6-7 yashar bolalarda bilimlarni o‘zlashtirish hamda umumiy o‘sishning ruhiy va fiziologik imkoniyalari hozirgacha biz faraz qilganimizdan ko‘ra ancha yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Mushohada chegaralari odamning mashg‘ulotlariga bog‘liq bo‘lib, u kengayishi va torayishi mumkin. Shaxmat o‘yini mushohadani qo‘zg‘otadi va o‘stiradi. Shaxmat o‘yini ruhiyatni tetiklashtirishga yordam beradi. [1]

Shaxmat aslida 64 katak atrofida va jonsiz predmetlar ishtirokida kechadigan o‘ta jonli jarayon. Bu o‘yinda millionlab kombinatsiyalar bo‘lishi mumkin. Ammo qabul qilinishi kerak bo‘lgan to‘g‘ri qaror faqat bittadir. Shu jihatdan uni insonning hayot va taqdir chiziqlariga mengzash mumkin. O‘ylamasdan, mantiqsiz qilingan birgina xato harakat raqib uchun mingta imkoniyat eshigini ochadi... [2]

Ba’zan kishilar orasida shaxmat sport turiga kiradimi-kirmaydimi degan mavzuda bahs bo‘lib turadi. Shaxmatni kishi ruhini chiniqtirishi, aqlini mustahkamlashi nuqtai nazaridan ham hech ikkilanmay sport turiga qo‘shish mumkin.

Qo‘shimchasiga jozibadorligi jihatidan esa haqiqiy san’at, desa ham bo‘laveradi. Murakkabligini esa fanga qiyoslash mumkin. Sport – san’at – fan uchburchagi shaxmatning tub mohiyatidir.

O‘zining betakror tarixi va madaniyati, aql-zakovati bilan asrlar davomida insoniyatni hayratga solib kelgan xalqimizning yuksak tafakkuri va intellektual salohiyati shaxmat timsolida yana bir bor yorqin namoyon bo‘ldi. Har bir shaxmat o‘yini bu badiiy asardir. Bunda bir-biriga qarama-qarshi teng kuchga ega bo‘lgan raqibchilar kurashidir. Agar shaxmatni inson hayotida tutgan o‘rni haqida o‘ylab ko‘radigan bo‘lsak – nafaqat bu sport, balki ma’naviyatni va ruxiyatni boyitadigan, aqlini ham charxlaydigan vosita ekanligi oydinlashadi.

Hozirgi zamon psixologlarining fikricha, harakteri og‘ir, badjaxl va urushqoq bo‘lgan bolalarga shaxmat bilan shug‘ullanish tavsiya etilar ekan. Darhaqiqat, shaxmat o‘ynaganda har bir yurish miyada hisob-kitob qilinadi. Boshqalar bilan maslahatlashib, kelishib o‘ynab bo‘lmaydi. Har bir shaxmatchi o‘zini bilimi va kuchlaridan foydalangan holda yahshi o‘ynashga harakat qiladi. Hozirgi kunga kelib shaxmat qonun-qoidalari ancha takomillashgan va islohlashgan. Hususan raqibga hurmat, do‘stona o‘yinlar madaniyati va ma’naviyati rivojlangan. Shaxmat haqida ko‘p mulohaza qilish mumkin, chunki shaxmatni nafis estetikaga qiyoslanadi. Bolada yuksak did, topqirlik, hozirjavoblik xislatlar tarkib topadi. Buni shaxmatni tushungan kishigina his qiloladi. Kuchli shaxmatchi besh qirrasi mavjud bo‘ladi: 1) qobilyat 2) harakter 3) sog‘lik 4) ruhiy, jismoniy tayyorgarlik va albatta 5) maxsus tayyorgarlik. [3]

Hozirgi mutaxasislarning fikriga qaraganda: shaxmat- inson o‘zini tutishida va og‘ir-vazmin bo‘lishi bilan birga hotirjam bo‘lishida katta yordam berar ekan. Shu bilan birga sog‘likka ham ahamiyati katta ekanligi aniqlangan. Ota-onaning farzandlarga, ustozlarning shogirdlarga o‘rgatgani davr shiddatiga dosh bera olmay qolmoqda. Zamonaviy mutaxassis esa tinimsiz izlanishda. Ya’ni, vaziyat murakkablashmoqda. Shaxmat esa murakkab vaziyatlarda zarur yechimlarni his qa vaqtda topishni o‘rganish modelidir.

Bugungi axborotlarning shiddatli oqimida (axborotlarning yangilanib turish tezligini ham e’tiborga olgan holda) kerakli ma’lumotni topish va bir qarorga kelish amaliy ahamiyatga ega. Shaxmatchilarning mashg‘ulotlarga ketayotgan vaqti sarfini boshqa biror soha bilan taqqoslab bo‘lmaydi: doimiy ravishda kuniga 6–8 soat, maxsus tayyorgarliklar davrida 12–16 soat shaxmat bilan shug‘ullanish bugungi yetakchi shaxmatchilar uchun sport formasini (so‘nggi shaxmat yangiliklaridan xabardor bo‘lish) saqlab turishning zaruriy sharti bo‘lib qoldi. Yirik xalqaro turnirlarda shaxmat partiyalari uchun esa olti soatcha vaqt beriladi. Partiyani shu vaqt ichida yakunlash shart. Qo‘yilgan masalani berilgan vaqtda hal etish muammosi dolzarblashib boraveradi. Farzandlarining hamma narsaga ulgurishini orzu qilayotgan va bu yo‘lda tinimsiz izlanayotgan ota-onalar shaxmatda shunday imkoniyatlarni ko‘rayotganligi bois yoshlarning bu yo‘nalishdagi yutuqlari sezilarli bo‘lmoqda. [4]

Tabiiy ravishda maktab yoshidagi bolalarning shaxmatni o‘rganishi ularning o‘his hlariga salbiy ta’sir qilmaydimi, degan savol ham ko‘ndalang bo‘ladi. Yo‘q. Aksincha, koni foyda. Barcha kuchli shaxmatchilar barcha fanlarni o‘zlashtirishda ilg‘or bo‘lishgan. Shaxmat o‘yini fikrlashni tartiblashtiradi, diqqatni jamlashni chiniqtiradi va xotirani rivojlantiradi. Ayniqsa, o‘smirlik yillarida shaxmat bilan shug‘ullanish katta ijobiy natijalar beradi. Sabr-bardoshlilik, izchillik, yuqori intizom va diqqatni bir joyga jamlay olish – shaxmatchi muvaffaqiyatining muhim omilidir. Davomli, kuchli yurishlar bilan erishilgan ustunlikni ozgina e’tiborni sustlashtirish evaziga boy berish mumkin.

Shaxmat nafaqat fikrlar va qarashlar kurashi, xarakter va irodaviy kurash hamdir. Bu borada psixolog va pedagoglar yetarlicha tajriba to‘plaganlar hamda maqbul uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shaxmat bilan shug‘ullangan bola “bir ishni boshladingmi, uni oxiriga yetkaz”, qoidasini ong ostida o‘zlashtiradi. Chunki shaxmat barcha harakatlarni natijaga qaratishni o‘rgatadi. Shaxmat universallikni talab etadi. Shaxmatda to‘plangan bilim hayotda ham sermulohazalilikni shakllantiradi, shaxsning ijodiy kamolotini sayqallaydi. [5]

«Shaxmat bola uchun ermak, quvonch manbai bo‘libgina qolmay, uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o‘stirishga ham xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bunday bu yongi hayotida muhim o‘rin tutadi. Shaxmat o‘yini jarayonida bolalar yangi bilim, malakalarni egallaydilar, qobiliyatlarini o‘stiradilar. Ota-onalar o‘zlari ham bolalarga o‘yin mazmuni va yo‘nalishini taklif etishlari mumkin.

Idrok deb, narsa yoki hodisalarni sezgi a’xzolariga bevosita ta’sir qilish jarayonida kishi ongida aks ettirishga idrok deyiladi. Bolada shaxmat donalari orqali narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko‘ra tahlili qilishi malakasini shakllantiradi. Maktabgacha yosh oxiriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7 xil rangni bemalol farqlay oladilar. Ular asosiy gemometrik shakllarni bilishlari lozim. Namunaga ko‘ra yoki nomi aytilgan ma’lum bir shakldagi narsalarni ajrata olishlari kerak. Bolalar narsalarning kattaligini farqlashda ularni bo‘yicha terib chihis hni biladilar. Shaxmat donalari to‘g‘ri terish, nomlarini to‘g‘ri aytish, ularni kuchlarini farqlash va qanday yurishlarni o‘rganadi.

Diqqat – individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faoliyatini bir narsaga qaratilganligidir. Shaxmat o‘yini orqali bolalarda diqqatni rivojlantririshga qaratilgan bo‘lib, ular voqelikning ma’lum jihatlariga qarata diqqatni to‘plashga qaratadi. Shaxmat turkumi orqali maktabgacha yoshda bola diqqatining turg‘unligi, ko‘chuvchanligi, bo‘linuvchanligi kabi xususiyatlari shakllanadi. Diqqatning turg‘unligi biror narsa ustida uzoq vaqt to‘plab tura olish demakdir. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalar 15-20 daqiqagacha uzluksiz shug‘ullana oladilar.

Diqqatni ko‘chirish – uni bir faoliyatda ikkinchisiga o‘tkaza olishdir. Diqqatning bo‘linuvchanligi bir vaqtning o‘zida kishining ikki yoki undan ko‘proq mashg‘ulot bilan shug‘ullana olishida namoyon bo‘ladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar 6-7 ta mashg‘ulot o‘rtasida diqqatni taqsimlay oladi.

Maktabgacha yoshda ixtiyorsiz diqqat jarayoni ayni paytda bola uchun qiziqarli narsaga diqqatni qaratishda yuzaga keladi. Ixtiyorsiz diqqat bolaning o‘zi uchun qiziq bo‘lmagan faoliyat bilan shug‘ullana olishda nazarda tutadi. Shaxmat o‘yinining yana bir jihati xotirani o‘stirishga qaratilgandir. Katta maktabgacha yoshdagi bola o‘z oldiga maqsad qo‘ya oladi. Biror narsani eslab qolishi ana shu maqsadni amalga oshirish vositalarini izlab topish shular jumlasidandir. Tafakkurni o‘stirish obrazli harakatli, ko‘rgazmali obrazli mantiqiy tafakkur turlarini egallashdan iboratdir.

Bola turli rejalar va sxemalardan erkin foydalana olishi lozim. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalarda mantiqiy tafakkur elementlari shakllana boshlaydi, ya’ni ular xulosa qila oladilar. Mantiqiy qonunlarga ko‘ra fikrlaydilar. Bolalar ijodiy qobiliyatini o‘stirish deganda tasavvur hayolning taraqqiyoti va noan’anaviy tafakkur qila olish tushuniladi. Ijodkor ko‘p jihatdan o‘z his tuyg‘ulari, olam haqidagi tasavvurlarni turli usullar bilan bayon eta olishga bog‘liq. Buning uchun esa bola har bir narsada uning turli tomonlarini ko‘ra olishi narsaga xos alohida belgilarning barchasini xis qilishi obrazni ko‘z oldiga keltira olishi kerak.

Va nihoyat, bolalarni maktabgacha tayyorlashga yordam beradigan shaxmat o‘yini orqali kichkintoylarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish nutqning tahlili bilan tanishtirish bola qo‘lini yozma malakasini egallashga tayyorlash ishlari olib boriladi.[6]

Ma’lumki, shaxmat bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga xizmat qilishi bilan bir qatorda ularning intellektual salohiyatini, fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu jarayonni, ya’ni shaxmatning bolada qanday ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishini quyida izohlashga harakat qilamiz.

Diqqatni jamlash: shaxmat o‘ynagan bola taxtadagi vaziyatlarga qarab diqqatini jamlaydi. Diqqatni bir joyga jamlay olish fikrlashning bir bosqichidir.

Reja tuzish va taqlil qilish: bola shaxmat taxtasidagi vaziyatga qarab, raqib shohini mot qilish uchun turli yo‘llar izlaydi, reja tuzadi, tahlil qiladi.

Qaror qabul qilish: favqulodda yuzaga kelgan kutilmagan holatni bartaraf etish uchun “Yurish kerakmi?”, “Hujum qilish kerakmi?”, “Himoyalanish kerakmi?” kabi qarorlarni bolaning o‘zi tezkorlik bilan qabul qiladi. Bu esa o‘z navbatida uni mustaqil fikrlashga, natijani hisobga olgan holda qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Mas’uliyatni his qilish: o‘yin jarayonida yosh shaxmatchining tajribasi oshib boradi. Turli musobaqalarda ishtirok etadi. Jamoa azosi sifatida maktab sharafini himoya qilish uchun ko‘proq tajriba to‘plashga, mahoratini oshirishga harakat qiladi. Bunda bolaning mas’uliyatni his etish ko‘nikmasi shakllana boradi.

Do‘stona munosabat: o‘quvchilarda birgalikda shaxmat o‘ynash orqali o‘zaro do‘stona munosabat shakllanadi, bu jarayon bolaning kirishimli bo‘lib ulg‘ayishiga ham xizmat qiladi.

Xotiraning rivojlanishi: eng chiroyli yurishlar, kombinatsiyalar, etyud va masalalar ularning yodida qoladi. Keyingi o‘yinlarda bu yurishlarni eslab, amaliyotda qo‘llashi bir tomondan ularni g‘alabaga yaqinlashtirsa, yana bir tomondan xotirasi mustahkamlanishiga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilish qobiliyati: sportda hamma vaqt ham omad kulib boqavermaydi. Ba’zan mag‘lubiyatga ham uchrash mumkin. Har bir sportchi o‘z mag‘lubiyatidan to‘g‘ri xulosa chiqarganidek, yosh shaxmatchilar ham “Qaysi yurishda xato qildim? Xato qilmaslik uchun nima qilish kerak edi?” deb o‘ylaydi. Keyingi musobaqalarda shu xatoni takrorlamaslikka harakat qiladi. Demak, bolalar o‘z xatolariga tanqidiy ko‘z bilan qarashni, har bir holatdan o‘ziga kerakli xulosa chiqarishni o‘rganadi. Shuni ta’kidlash muhimki, xulosa chiqarishni o‘rgangan bola hayotda ham murakkab vaziyatlardan tez chiqib ketishning choralarini topa oladi. [7]

Shaxmat bilan shug‘ullangan bolaning, birinchidan, mazmunsiz o‘tadigan bo‘sh vaqti bo‘lmaydi. Ikkinchidan, barcha fanlarni, jumladan hozir keng e’tibor berilayotgan chet tilini o‘zlashtirishi osonlashtiradi. Uchinchidan, intellektual salohiyat yuksaladi, mudrab yotgan qobiliyatlar ochiladi. Bugungi tezkor zamonda har bir ota-ona farzandlarining yetuk inson bo‘lishini, shiddatli davr qo‘yayotgan yangi-yangi talablarga moslasha oladigan shaxs bo‘lib shakllanishini istaydilar. Bu muammoni shaxmat muvoffaqiyatli hal etadi.

Shaxmat shubxasiz foydadir, u odamning intelektual o‘sishiga ko‘maklashadi va inson tafakkurini boyitadi. Kuchli shaxmatchining shu o‘yinga bo‘lgan qiziqishi uning fikrlashi muhim ro‘l o‘ynab, duyoqarashi, mulohaza qilish qobiliyati muntazam o‘sib boradi. Xalqimizda “tetti o‘lchab bir kes”, degan maqol bor. Shaxmat o‘yinini zarur bo‘lganda o‘n, yigirma karra o‘lchashni taqazo etadi. Inson miyasining hali fanga ma’lum bo‘lmagan qirralari ishga tushadi. Nafaqat raqib, hatto o‘zi ham hayratlanadigan yechimlarni izlab topishga erishadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bolalarni maktabga tayyorlashda shaxmat o‘yinlaridan foydalanish uning idroki, tafakkuri, xotirasi va mantiqiy fikrlashini o‘stiradi va shakllantiradi, bundan tashqari shaxmat yoshlarni aqliy, axloqiy, ruhiy, ma’navnviy jihatdan sog‘ligini ta’minlaydi. Shaxmat o‘quvchi-yoshlarning fanlarni a’lo darajada o‘zlashtirishga yo‘l ochib beradi. Shaxmat o‘ynash qabiliyati shakllangan bola hech qachon yomon yo‘lga kirmaydi, shundan komillikka intilib yashashga o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3906 sonli qarori

2. Nosir Muhammad. Shaxmat mo‘jizasi. –T., 2014 y. - 9 b.

3. Muhiddinov M. Kataklarda yashiringan olam. -T.: O‘zbekiston, 1976.

4. Холиқов У. O‘rta Osiyo ta’lim va innovatsiyalar jurnali 1 (2), Бошланғич синф ўқувчиларда шахмат ўргатиш орқали мантиқий фикрлаш ва шахсий сифатларини баҳолашнинг иннавоцион усуллари. 28-37 b.

5. U.K Khalikov Pedagogical value of developing playing chess among primary schoolchildren Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23 b.

6. Xoliqov U.K. Yoshlar tafakkurini shaklantirishda shaxmatning o‘rni. Academic research in educational sciences 2 (CSPI conference 3), 538-541 b.

7. “Ma’rifat” gazetasi. 2016-yil 27-fevral № 17-son.15 b.